

RINOLALIYANING KELIB CHIQISH TARIXI VA ILMIY SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Mirzaqulova Ziyoda Ozod qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Maxsus Pedagogika 4-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada rinolaliyaning etiologiyasi, tarixiy shakllanish bosqichlari, zamonaviy diagnostikasi va korreksion yondashuvlar keng yoritilgan. Rinolaliya nutq potologiyasining murakkab turlaridan biri bo'lib, u artikulyatsion apparat va rezonatr tizimining buzilishi bilan bog'liq. Rinolaliya nutq apparatining anatomik va funksional buzilishi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: Rinolaliya, nutq patalogiyasi, velofaringeal yetishmovchilik, tanglay yorig'i, lagapediya, fanetika.

Kirish so'zlar: Nutq inson faoliyatining eng muhim psixofiziologik funksiyalaridan biridir. Nutq orqali inson fikrini ifodalaydi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi. Nutq tizimi murakkab bo'lib, markaziy asab tizimi, perefirik nutq apparati, eshitish analizatori va psixologik mexanizmlar uyg'unligini talab etadi. Ushbu tizimlardan birontasini buzilishi nutq patalogiyalariga olib keladi. Rinolaliya shunday patalogiyalardan biri bo'lib, nutqning burun rezonansining patologik o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi.

Rinolaliyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari:

Rinolaliya muammosining o'rganilishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston tabobatida nutq buzilishlari anatomik nuqsonlar bilan bog'liq holda o'rganilgan. Gippokrat nutq organlari tuzilishidagi o'zgarishlar nutq sifatiga ta'sir qilishini ta'kidlagan. Antik davrda nutq patalogiyalari alohida fan sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, dastlabki tibbiy kuzatuvlar amalga oshirilgan. O'rta asrlarda nutq nuqsonlari diniy qarashlar bilan izohlangan. Ushbu davrda tug'ma nuqsonlar ko'pincha irsiy yoki ilohiy jazolash sifatida talqin qilingan. Ilmiy tibbiyot rivoji cheklanganligi sababli nutq patalogiyalari bo'yicha chuqur tadqiqotlar o'tkazilmagan. Uyg'onish davrida anatomiya va fiziologiya fanlarining rivojlanishi nutq apparatini chuqur o'rganish imkonini berdi. Og'iz va burun bo'shlig'i rezonans tizimi o'rganila boshladi. Bu davr keying ilmiy tadqiqotlar uchun muhim asos yaratdi.

XIX asrda ilmiy shakllanish davri.

XIX asr logopediya fanining shakllanish davri hisoblanadi. Bu davrda nutq buzilishlari mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida ajratila boshlandi. Velofaringeal yopilish mexanizmi o'rganildi. Tanglay yorig'ini jarrohlik yo'li bilan davolash usullari ishlab chiqildi. Fonetik tahlil usullari ham rivojlandi.

XX asr-kompleks yondashuv davri.

XX asrda nutq patologiyalarini o'rganishda psixologik, pedagogic va tibbiy yondashuvlar integratsiyasi amalga oshirildi. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasini nutq rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda o'rganishga asos bo'ldi. Levina nutq nuqsonlarini tasniflash va diagnostika qilish metodikasini ishlab chiqdi. Rinolaliya ochiq, yopiq va aralash turlarga ajratildi. Ochiq rinolaliyada havo burun orqali ko'proq chiqadi, yopiq rinolaliyada esa burun rezonansi kamayadi.

Zamonaviy diagnostika va davolash usullari.

Hozirgi kunda rinolaliya diagnostikasida endoskopiya, nazometriya, akustik analiz, rentgenologik tekshiruvlar qo'naliadi. Davolash jarayoni kompleks xarakterga ega. Jarrohlik amaliyotlari, ortodontik davolash va logopedik terapiya birgalikda olib boriladi. Bolalarda rinolaliyani erta aniqlash muhim ahamiyatga ega. Erta korreksiya nutq rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi. Psixologik yordam ham muhim hisoblanadi.

Rinolaliyaning klinik va pedagogik ahamiyati.

Rinolaliya bolaning ijtimoiy moslashuviga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nutq nuqsonlari bolaning kommunikativ qobiliyatlarini cheklashi ehtimoli mavjud. Shu sababli kompleks reabilitatsiya muhimdir.

Rinolaliya turlari.

{ Ochiq rinolaliya } Bu turda yumshoq tanglay yetarlicha yopilmaydi va havo burun bo'shlig'i orqali chiqadi. Natijada nutq burunlashgan bo'lib eshitiladi.

{ Yopiq rinolaliya } Burun bo'shlig'i o'tkazuvchanligi kamayadi. Ko'pincha adenoid vegetatsiyalar yoki burun yo'llari obstruksiyasi bilan bog'liq.

{ Aralash rinolaliya } Ikkala tur belgilarining birgalikda namoyon bo'lishi.

Zamonaviy diagnostika usullari.

Hozirgi davrda rinolaliyani aniqlashda yuqori texnologiyalar qo'llaniladi:

- Endoskopik tekshiruv
- Nazometriya
- Akustik spektrografiya
- 3D kompyuter modellashtirish

Genetik tibbiyot rivojlanishi tug'ma nuqsonlarni prenatal davrda aniqlash imkonini bermoqda.

Zamonaviy davolash va korreksiya.

Rinolaliyani davolash kompleks yondashuvni talab qiladi:

Tibbiy yo'nalish

- Jarrohlik operatsiyalar(uranoplastika)
- Ortodontik davolash

Logopedik yo'nalish

- Artikulyatsion mashqlar

- Nafas mashqlari
- Ovoz mashqlari

Psixologik yordam

Nutq nuqsonlari bolalarning o'ziga ishonchiga ta'sir qilishi mumkin,shu sababli psixologik reabilitatsiya ham mumkin.

XXI asr yutuqlari

Hozirgi kunda quyidagi texnologiyalar qo'llanilmoqda:

- Sun'iy intellect yordamida nutq tahlili
- Robotlashtirilgan reabilitatsiya tizimlari
- Mobil logopedik dasturlar

Prenatal diagnostika texnologiyalarni homila rivojlanishidagi nuqsonlarni erta aniqlash imkonini bermoqda.

Rinolaliyaning pedagogic ahamiyati

Rinolaliya boalarining:

- Kommunikativ rivojlanishiga
- Ijtimoiy moslashuviga
- Ta'lim jarayonidagi faolligiga ta'sit qiladi.

Shuning uchun inklyuziv ta'lim tizimida bunday bolalar uchun maxsus pedagogic yondashuv zarur.

Xulosa: Rinolaliya tarixiy rivojlanish jarayonida oddiy nutq nuqsonidan murakkab multidisiplinar patalogiya darajasiga yetdi.Zamonaviy tibbiyot,genetika va logopediya fanlarining rivojlanishi ushbu muammoni erta aniqlash vas amarali davolash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Volkova L.S. Logopediya. Moskva, 2000
2. Lalayeva R.I. Nutq patolohiyalari. Sankt-Peterburg, 2003
3. Kummer A.W. Cleft Palate and Craniofacial Anomalies. 2013
4. Peterson-Falzone S. Speech Disorders. 2001
5. Azizova G.N. Logopediya asoslari. Toshkent, 2015